



TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI

Haqnazarova Nilufar Quranboyevna

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz axborot-resurs markazi bo'lim boshlig'i

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10590479>

ARTICLE INFO

Received: 23th January 2024

Accepted: 39th January 2024

Online: 30th January 2024

KEY WORDS

Pedagog, transformatsiya, ta'lim transformatsiyasi, modernizatsiya, islohotlar, kommunikativ aloqalar, ratsional, irratsional komponent.

ABSTRACT

Maqolada ta'limning doimiy transformatsiyasi reproduktiv-axborot va predmetli-tabaqalashtirilgan bilimlardan integrativ bilimlarga o'tish, ta'lim jarayoni ishtirokchilarning subyekt-subyekt o'zaro ta'siri, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanish, tarmoq ta'limini rivojlantirishga asoslangan ta'lim munosabatlarning yangi turini tashkil etish foydasiga avtoritar o'qitish uslubini rad etish orqali uni qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui o'rganilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar, shu jumladan ta'limda ham, odatda, transformatsiya, modernizatsiya va islohotlar atamalaridan foydalangan holda tavsiflanadi. Ushbu tushunchalar zamonaviy sivilizatsiya o'zgarishlarining o'ziga xos tahliliy matritsasini tashkil qiladi va o'ziga xos semantik ma'noga ega bo'ladi. Ushbu qatorda eng keng tarqalgani bu jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida eng ko'p ishlatiladigan transformatsiya tushunchasidir [Matnazarova M.B., Pilyavskiy V.P.].

Aksariyat olimlarning fikriga ko'ra, transformatsiya deganda dastlabki shakllanishning aloqalari, munosabatlari, tashkil etilishi va funksiyalari o'zgarishi bilan o'zgarib turadigan tizimlarning muhim tarkibiy qayta ishlanishi tushuniladi. Zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarni tahlil qilishning nazariy vositasi sifatida transformatsiya tushunchasining o'zi muhim evristik salohiyatga egadir. Ushbu konsepsiya ijtimoiy jarayon dinamikasini baholash nuqtayi nazaridan neytral bo'lganligi sababli, u nafaqat uning progressiv tendensiyalarini, balki teskari va qaytarilmas, progressiv va regressiv, evolyutsiyaviy va inqilobiy, maqsadli va stixiyali, tizimli hamda qisman va hokazo kabi ijtimoiy o'zgarish tendensiyalarining butun doirasini tahlil qilishga imkon beradi. Ijtimoiy o'zgarishlarning o'zini o'zi tartibga soluvchi va o'zini o'zi tuzatadigan tabiatiga e'tibor qaratadigan transformatsiya konsepsiyasi, shuningdek, ushbu o'zgarishlarning determinlashgan omillarining keng doirasi – obyektiv va subyektiv, asosiy va vaziyatli, ichki va tashqi, boshqariluvchi va boshqarilmas, maqsadlarni belgilash bilan bog'liq va muayyan maqsadlarga erishish vositalari kabilarni tahlil qilishga qaratilgan [Begimqulov U.Sh., Karimxojayev A.A., Imamov E.Z., Yakovleva N.G.].

G.I. Gerasimovning ta'kidlashiga ko'ra, MDH mamlakatlari jamiyatining sovetlarning ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida jamiyat, iqtisodiyot va bandlik transformatsiyasiga asoslangan oliy ta'limning transformatsion



jarayonlari sodir bo'lgan va hozir ham davom etmoqda. Ushbu transformatsion jarayonlar bundan keyin ham fuqarolarga ta'lim olish va kasbiy malakaga ega bo'lish, uni qo'llab-quvvatlash va oshirish uchun keng imkoniyatlar asosida to'liq, oqilona, erkin tanlangan ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini taqdim etishga qaratilishi juda muhimdir. Ta'kidlash lozimki, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdagi oliy ta'lim quyidagi asosiy xususiyatlar: kafolatlangan, rejalashtirilgan, majburiy, mobil bo'lmagan, ommaviy sanoat ishlab chiqarishi, birinchi navbatda harbiy-sanoat ehtiyojlariga yo'naltirilganligi bilan ajralib turardi. Biroq, u yetarlicha sifatli va erishish imkoni kengroq edi. Tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonida oliy ta'limning tabiati turli xil omillar ta'siri ostida ham ijobiy, ham salbiy o'zgarishlarga duch keldi. Ularning asosiylarini quyidagicha guruhlash mumkin:

bozor o'zgarishlari oliy ta'lim sohasida ta'limning yangi shakllari va turlarining jadal rivojlanishi, ta'lim mobilligi kabi ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi, bu, xususan, oliy ta'limga, birinchi navbatda iqtisodiyot, tadbirkorlik va huquq sohasiga ommaviy qiziqishda namoyon bo'ldi;

ko'pgina xususiy ta'lim muassasalari paydo bo'ldi, oliy ma'lumotga talab sezilarli darajada oshdi va bu ijobiy omillar, davlat tomonidan tegishli tartibga solinmasa, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining pasayishi bilan bog'liq sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

davlat iqtisodiyotining ochiqligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning globallashuvi xalqaro ta'lim korporatsiyalarining yaratilishiga olib keladi, bu esa umuman ta'lim sohasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

ilmiy-texnik taraqqiyot oliy ta'lim sohasiga asosan ijobiy ta'sir ko'rsatib, ta'limni tezkor kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar tarqalishi va boshqalar namoyon bo'lmoqda;

davlat tomonidan tartibga solish ta'siri ostida muqaddam sovet makonida kuzatilmagan misli ko'rilmagan iqtisodiyotni, bandlik va ta'limni demokratlashtirish amalga oshirildi va bu ushbu sohadagi eng muhim yutuq hisoblanadi.

Ushbu va boshqa omillarning ta'siri natijasida oliy ta'limning sezilarli transformatsiyasi sodir bo'ldi va hozir ham sodir bo'lmoqda [Gerasimov G.I.].

Ta'limning jamiyatni tubdan o'zgartiradigan rivojlanishning tezlashtiruvchi omili sifatidagi roli haqida E.V. Spirin fikr yuritadi. Muallifning ta'kidlashiga ko'ra, ta'limning transformatsion modelining asosiy vazifasi ta'lim oluvchining, bo'lajak mutaxassisning hayot-faoliyatning dinamik sharoitlariga nisbatan shaxsiy moslashish jarayonini tezkorlik bilan amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Va bunday o'zgarish tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim oluvchining shaxsidan talab qilinadigan moslashish salohiyati va qobiliyatlari ham shunchalik katta bo'ladi. Axborot jamiyatida yashaydigan mutaxassislar, ta'lim oluvchilarga yangi va yanada ilg'or qobiliyatlar zarur bo'ladi. Masalan, bularga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

doimiy, uzluksiz ta'lim olish, o'rganish qobiliyati. Bu qobiliyatning muhimligi rivojlanishning yanada tezlashishi bilimlarni o'z haqiqiyli va ahamiyatini tezda yo'qotadigan mahsulotga aylantirishi bilan bog'liq. Birinchidan, bu faktik ma'lumotlarga tegishli. Yuqori darajada rivojlangan jamiyatdagi odam harakatchan bo'lgani, ya'ni u doimiy ravishda ishini, yashash joyini, ijtimoiy aloqalarini va boshqalarni o'zgartirgani uchun, u professional ta'limi uchun katta mablag' sarflaydi. Shu sababli, o'ta dinamik bo'lgan axborot jamiyati a'zosi bo'lgan



odamga bilimlar yig'indisi emas, balki ushbu bilimlarni qo'llay bilish, o'z bilimlarini doimiy to'ldirish va yangilash qobiliyati zarur bo'lishi tabiiy bo'ladi;

doimiy kommunikativ aloqalarni o'rnatish va o'zaro hamkorlik qilish qobiliyati. Hayot sur'ati o'sib boradi va shuning uchun odamlar o'rtasida foydali aloqalarni o'rnatish va saqlashda qiyinchiliklar kuchayishini oldindan aytish mumkin;

optimal, ya'ni maqbul tanlovni amalga oshirish qobiliyati. Axborot jamiyatiga o'tish tanlash imkoniyatini va muammolarni hal qilishning murakkabligini oshiradi, shuning uchun ta'lim haddan tashqari tanlov muammosini hal qilishi kerak. Bunda moslashuv inson to'g'ri tanlov qilishi kerakligini taxmin qiladi. Ko'p sonli muqobililar orasida shaxs o'zining qadriyatlarini tizimiga to'g'ri keladigan yagona narsani tanlashi kerak bo'ladi [Spirin Ye.V.].

K.I. Korchakning fikrlariga ko'ra, zamonaviy transformatsion sharoitda ta'lim jarayoni internet, sun'iy yo'ldosh televideniyesi, video texnologiyalar, shuningdek, ta'lim mobilligini, ya'ni o'z manfaatlarini, qobiliyatlarini, motivatsiyasidan kelib chiqqan holda dunyoning turli mamlakatlarida o'qishni davom ettirish imkoniyatini o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya sohasida tobora ko'proq sodir bo'lmoqda. Zamonaviy ta'limning mohiyati faqatgina bilimlarni yetkazishda bo'lib qolmasdan, balki ta'lim oluvchilarda har qanday vaziyatda murakkab muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan ijodiy (refleksiv va loyihaga yo'naltirilgan) tafakkur madaniyatini shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Mutaxassislarining tor ixtisoslik bo'yicha yuqori kasbiy bilimlari, odatda, 5-7-yil ichida eskir boshlaydi. Shuning uchun o'z-o'zini o'qitish, qayta tayyorlash, uzluksiz ta'limga bo'lgan ehtiyoj mutaxassisni zamonaviy hayot sharoitlariga moslashtirishning muhim shartlaridan biridir. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim makonida axborotdan farqli o'laroq, bilim nuqtayi nazar, e'tiqod va niyatlarni nazarda tutishini, u har doim real harakat bilan bog'liqligini aniq tushunish lozim bo'ladi. Bugungi kunda eng muhimi, axborotni qayta ishlashni tashkil etish va yangi, yuqori sifatli intellektual pedagogik mahsulotni shakllantirish bo'lib, bunda quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladigan o'zaro bog'liq strukturlashgan birlik tushuniladi:

emotsional-hissiy komponent, ya'ni hissiy bo'yoqqa ega bo'lgan hisoblanib, xavotirlanish, tashvishlanish, qayg'urish hissini keltirib chiqaradi;

ratsional, irratsional komponent, ya'ni fikrlar, maqsadlar, motivlar, qadriyatlar va boshqalar;

xulq-atvor-irodaviy komponent, ya'ni ijodkorlik, stereotiplar, amaliy ko'nikmalar, xulq-atvor normalari, harakatga tayyorlik [Korchak K.I.].

Ta'lim jarayoni bilan bog'liq transformatsion tendensiyalar tadqiqotchi Ye.V. Tinkova tomonidan ajratib ko'rsatiladi. Uning fikricha, ta'limda namoyon bo'layotgan transformatsiyalar birinchi navbatda axborot jamiyatining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Kundalik hayot-faoliyatimizning har bir jihati axborot texnologiyalarining faol rivojlanishi bilan muqarrar ravishda raqamli xususiyatlarga ega bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining ma'nosi aynan ularning sinergiyasida, birlashgan imkoniyatlar va salohiyatlarning ta'sirida yotadi. Bundan tashqari, axborotlashtirish unga tizimlilik xosligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli, bir marta olingan ta'lim endi umr bo'yi yetarli bo'ladigan barqaror professional darajani ta'minlamaydi. Shu bilan birga, faoliyat bilan parallel ravishda doimiy ta'lim olish ta'limning ba'zi tamoyillarini o'zgartirishni talab qiladi. Bunda yangi avlod uchun



eng avvalo axborot jamiyatiga moslashadigan shaxsni tarbiyalash tizimi sifatidagi yangilangan pedagogikani ishlab chiqish zarur bo'ladi [Tinkova Ye.V.].

Global axborot makonining paydo bo'lishi, Ye.V. Piraynenning so'zlariga ko'ra, nafaqat zamonaviy mutaxassis shaxsini kasbiy faoliyatning sifat jihatidan yangi darajasiga o'tkazadi, balki unga jiddiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ular shundan iboratki, mutaxassis axborot texnologiyalarining dinamik rivojlanishini, kasbiy yondashuvlarni va boshqalarni qoniqtiradigan tegishli darajadagi kompetentlikni saqlab qolish uchun doimiy ravishda rivojlanishi va o'qitishi kerak bo'ladi. Shu bilan birga, bugungi kunda ta'lim allaqachon transformatsiya sharoitida faoliyat yuritmoqda va o'ziga xos axborot jarayoni sifatida taqdim etilib, uning mohiyati axborot jamiyatida birinchi o'ringa chiqadigan eng yangi va zamonaviy bilimlarni olishdir. Ma'lumotni yaratish, ishlatish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish qobiliyati mutaxassis shaxsining ishdagi muvaffaqiyati va uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligining asosiy shartiga aylanadi. Hozirgi bosqichda sivilizatsiyalashgan rivojlanish jarayoni jamiyat oldiga individual qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish orqali kasbiy mahoratni doimiy ravishda takomillashtirishga intiladigan, jamiyatning har bir a'zosiga kasbiy o'sish uchun imkoniyatlar yaratadigan ta'lim ehtiyojlarini shakllantirish muammosini qo'yimoqda. Bularning barchasi zamonaviy ta'lim tizimida transformatsiya jarayonlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi [Piraynen Ye.V.].

D.D. Sinitsina o'z tadqiqotida zamonaviy ta'lim jarayoniga maksimal darajada jalb qilinishi kerak bo'lgan, shuningdek, davom etayotgan transformatsiya jarayonlarining sabablaridan biriga aylanishi kerak bo'lgan barcha axborot texnologiyalarini uchta darajaga (saqlaydiganlar; ratsionalizatsiya qiladiganlar; ijod qiladiganlar - kreativlar) ajratadi. Bunda, saqlovchi axborot texnologiyalar mehnat, moddiy, moliyaviy resurslar va vaqtni tejaydi, lekin obyektning holati va ishlash darajasini sezilarli darajada o'zgartirmaydi. Bular aloqa texnologiyalari, ma'lumotni manbadan qabul qiluvchiga uzatuvchi tizimlar. O'z navbatida, ratsionalizatorlik texnologiyalariga turli xil texnologik jarayonlarni boshqarishni ta'minlaydigan tizimlar (dispetcherlik tizimlari, transport uchun chiptalarni sotish, mehmonxonalarda joyni bron qilish, tovarlarni avtomatlashtirilgan elektron sotib olish, kassa operatsiyalarini taqdim etish, ta'lim xizmatlari) kiradi. Axborot texnologiyalarining keyingi, eng ilg'or darajasi ijodiy (kreativ) tizimlardir. Ular to'liq axborot siklini - axborotni (yangi bilimlar) rivojlantirish, uni uzatish, qayta ishlash va yangi, yuqori maqsadlarga erishishni qamrab oladi. Kompyuter texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash axborotni boshqaruv, kognitiv va boshqa jarayonlarda qayta ishlash va undan foydalanishning butun sikli bilan bog'liq chuqur muammolarni aniqladi. Obyektning nafaqat mavjud maqsadli ishlash darajasida ushlab turadigan, balki uni sifat jihatidan yangi maqsad darajalariga olib chiqadigan kompyuterlashtirilgan tizimlarga ehtiyoj vujudga keldi. Jamiyatning bunday transformatsiyasi uchun asos sifatida intellektual tizimlar yoki generatorlar, boshqacha aytganda, ijodiy tizimlar namoyon bo'ladi. Ular axborot texnologiyalari taraqqiyoti, kompyuterlashtirish, axborotlashtirish muammolarining murakkab zanjirining asosiy bo'g'ini bo'lib, bu butun zanjirni ajratib olish, jamiyatni yangi sifat holatiga o'tkazish imkonini beradi. Bular boshqaruvni texnologiyalashtirishni hamda novatorlik energiyetik va axborot texnologiyalarining organik birikmasini ta'minlaydigan tizimlardir [Sinitsina D.D.].



V.A. Tixonovning fikriga ko'ra, ta'limdagi transformatsion jarayonlar, birinchi navbatda, mutaxassisning intellektiga nisbatan talablarning sifat o'zgarishlari bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazaridan, muallifning ta'kidlashicha, bugungi kunda bo'lajak mutaxassislar uchun axborot tayyorlashning ko'plab shakllari eskirgan va amalda keraksiz va hatto zararli bo'lib qolmoqda. Industrial jamiyatda axborotga bo'lgan ehtiyoj o'z sohasidagi hamma narsani yoki deyarli hamma narsani biladigan tor mutaxassislarni tayyorlashga qaratilmoqda. Natijada, bitta mutaxassis uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlar miqdori imkon qadar kamaydi. Ixtisoslashuv torayib borar ekan, axborot tizimlarini rivojlantirish ehtiyojlari esa alohida mutaxassisning kompetentligi bazasini kengaytirishni talab qiladigan bunday integratsiyalashgan jarayonlarni keltirib chiqardi, bu, albatta, uning ta'lim jarayonining tabiatiga zid kela boshladi va umuman ta'limning muqarrar transformatsiyasiga olib keldi. Mutaxassisning intellektual faoliyati va elektron hisoblash mashinasi ishi o'rtasidagi sifat farqini anglash bilan bir qatorda vaziyat yanada keskinlashdi. Haqiqiy yoki insoniy va sun'iy intellektni nafaqat qarama-qarshi, balki ma'lum darajada bir xil deb hisoblash kerakligi aniq bo'ldi, chunki ular hali ham bir-biriga o'xshashdir. Agar, masalan, mutaxassisning aqliy faoliyati yetarlicha rasmiylashtirilgan bo'lsa, unda axborot nuqtayi nazaridan elektron kompyuterning ishlashi tabiiy intellekt bilan qisman yoki to'liq bir xil bo'lishi mumkin. Masalan, shaxmat dasturlarining rivojlanishi tufayli kompyuter tajribali o'yinchi bilan deyarli teng sharoitlarda raqobatlasha oladi. Biroq, hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, hatto dasturiy ta'minotni qayta ishlashning juda yuqori tezligi ham murakkab axborot muammolarini hal qilmaydi, holbuki ular tabiiy intellekt yordamida hal qilinadi. Bu yerda juda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga (kamroq aniqlik bilan bo'lsa ham), amaliyot uchun yetarli bo'lgan natijalarni olish va hatto axborot texnologiyalarining ishlashini tezlashtirish qodir inson intellektining afzalliklari qayta kashf etiladi [Tixonov V.A.].

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, bugungi kunda globallashuv va axborot jamiyatining rivojlanishining murakkab jarayonlari jadal moslashib, o'zgarib borayotgan ta'lim sohasida ham o'z aksini topmoqda, degan xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonlar, shuningdek, ijtimoiy tuzilmalar va ijtimoiy-madaniy dinamikaning sifat jihatidan yangi xarakterini belgilaydigan ilmiy, texnik, texnologik, ijtimoiy va madaniy xarakterdagi tub o'zgarishlar, zamonaviy inson hayotining tabiiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, ta'limning transformatsiyasi zamonaviy jamiyatning yangi bilimlar manbai sifatida bilimning rolini kuchaytirish, insonning o'z faoliyati oqibatlarini uchun javobgarlikni anglashi, ijtimoiy tuzilmalarning murakkablashishi va geterogenizatsiya kabi muammolari bilan bog'liqdir. Ta'limning doimiy transformatsiyasi reproduktiv-axborot va predmetli-tabaqalashtirilgan bilimlardan integrativ bilimlarga o'tish, ta'lim jarayoni ishtirokchilarning subyekt-subyekt o'zaro ta'siri, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanish, tarmoq ta'limini rivojlantirishga asoslangan ta'lim munosabatlarining yangi turini tashkil etish foydasiga avtoritar o'qitish uslubini rad etish orqali uni qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini aks ettiradi. Shu bilan birga, ta'limning zamonaviy transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari zamonaviy jamiyatning o'zaro bog'liqligi, o'zaro shartlashganligi va tizimli murakkabligining o'sishi, dunyoqarash, madaniyat, qadriyat yo'nalishlarining o'zgarishi va kundalik hayotda axborot texnologiyalari ulushining to'yinganligida namoyon bo'ladi.



References:

1. Бегимкулов У.Ш., Каримхожаев А.А., Имамов Э.З. Образование взрослых в Узбекистане. // Образование через всю жизнь: непрерывное образование для устойчивого развития: Труды международного сотрудничества в области непрерывного образования для устойчивого развития. Т. 5. – 2007. - С. 36-41.
2. Герасимов Г.И. Трансформация образования - социокультурный потенциал развития российского общества. М.: «Социально-гуманитарные знания», 2005. - С. 34-40.
3. Корчак К.И. и др. Современные подходы к понятию цифровой трансформации образования. // Проблемы современного образования. - 2022. - №1. - С. 171-183.
4. Матназарова М.Б. Условия эффективности интернационализации содержания высшего образования. // Образование и инновационные исследования, 2023, №9. - С. 192-194.
5. Пилявский В.П. Трансформация образования: основные тенденции. // Экономика и управление. - 2020. - №26(8) - С. 873-878.
6. Пирайнен Е.В. Трансформация образовательного процесса в современном информационном пространстве. // Дискурс. - 2017. №4. - С. 32-36.
7. Синицына Д.Д. Особенности трансформации системы образования в России в современных экономических условиях. // Современные научные исследования и инновации. - 2016. - №12. - С. 91-96.
8. Спирин Е.В. и др. Цифровая трансформация системы образования. // Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Серия: Информационные компьютерные технологии в образовании. - 2018. - № 14. - С. 5-37.
9. Тинькова Е.В. Новые тренды российского экономического образования. // Современное образование: векторы развития. Инновационные подходы к преподаванию социально-гуманитарных дисциплин: материалы IV Междунар. конф. М.: Московский пед. госуд. ун-т, 2019. - С. 142-148.
10. Тихонов В.А., Шалина Д.С. Трансформация образовательной системы в условиях неопределенности и усиливающихся требований на рынке труда. // Современные проблемы науки и образования. - 2022. - №2. - С. 123-127.